

SOXTA SALAFIYLARNING O'ZBEK MEDIA MAKONIDAGI FAOLIYATI TAHLILI

*Hayitaliyev Yahyobek Ibrohim o'g'li, O'zbekiston Respublikasi
Din ishlari bo'yicha qo'mitasi bosh mutaxassisi, A.Navoiy 12, Tashkent.
hayitaliyev55@gmail.com, tel: 91 191-75-74.*

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanib borishi fonida milliy media segmentga yo'naltirilgan **ekstremistik va terrorchi** guruhlarining **mafkuraviy xuruji** kuchayib borayotgani va radikal g'oyalar tarqalishi faollashgani kuzatilmoqda.

Mazkur tendensiya ekspertlarning fikriga ko'ra, **ishsizlik, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning** murakkablashib borayotgani, dunyo aholisining **ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar** bilan to'qnash kelishi va moliyaviy sharoiti og'irlashgan qatlamda **norozilik kayfiyatning** kuchayishi global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanuvchilar uchun mafkuraviy xurujni amalga oshirish va o'z tarafdorlari safini oshirishga qulay sharoit yaratmoqda.

Mana shunday mafkuraviy xurujlardan biri – islomga turli bid'atlar kirib qolganini iddao qilib, jamiyat va musulmonlarning kundalik turmush tarzi uning talqinidagi Qur'on va sunnaga asoslangan holda qat'iy tartibga solinishi zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surib kelayotgan **“soxta salafiylar”** vakillari hisoblanadi.

Soxta salafiylik – bu islom tarixidagi muayyan diniy tushunchalarni ekstremistik va literal (so'zma-so'z) talqinda qabul qilgan, zamon va makon omillarini inobatga olmaydigan mafkuraviy oqimdir. “Salaf” so'zi diniy istilohda muayyan bir davr bilan bog'liq ma'noni beradi. Payg'ambar (alayhissalom)dan kelgan hadislarda “Eng yaxshi davr men yashagan davr, so'ng undan keyingi va undan keyingi davrlardir”¹ deb, islomning ilk uch davri ta'kidlab o'tilgan².

Shunga ko'ra, Islom ulamolari **sahobiy, tobein va tabaa tobeinlarni “solih**

¹ Sahihi Buxoriy, 2537-hadis.

² Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy. As-Salafiyya marhala zamaniyya laa mazhab islamiy. – Damashq: Dor al-fikr, 2005. 9-bet.

<https://scientific-jl.com/>

ajdodlar” deb hisoblashda yakdil fikrdalar.

Keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan “salaf” yoki “salafiylar” tushunchalarini ishlatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, ularga “**xalaf**” ya’ni, **keyingi kelganlar** deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Qayd etish joizki, tarixda yashab o‘tgan Islom ulamolarining asarlarida “salaf” so‘zi ko‘p uchraydi. Ammo, bundan murod hozirgi davrimizda alohida ajralib chiqqan, o‘zlarini “salafiy” deb atayotgan toifalar nazarda tutilgan emas.

Soxta salafiylik g‘oyalari ilk bor XIII asrda yashagan suriyalik Ahmad ibn Taymiyya (1263–1328) tomonidan shakllantirilgan. U o‘z davridagi sufiylik, falsafa, kalom ilmi va rasmiy mazhablar (xususan ash‘ariy va moturidiy manhajlari)ga qarshi qattiq tanqidiy pozitsiyada bo‘lgan. Ibn Taymiyaning yondashuvi literalizmga asoslangan bo‘lib, Qur‘on va Sunnani so‘zma-so‘z talqin qilishni, musulmonlarning diniy amaliyotida bid‘at, ya’ni yangi kiritilgan rasm-rusumlar va urf-odatlariga qarshi keskin kurash olib borishni ilgari suradi.

Ibn Taymiyaning qarashlari o‘z zamonida islom olimlari, xususan, hanafiy, molikiy va shofe‘iy ulamolari tomonidan tanqid ostiga olingan va uning ayrim fatvolari hatto siyosiy va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkinligi sababli rad etilgan. Uning ijtimoiy mojarolar, jihod, kufrga hukm chiqarish kabi masalalardagi qat‘iy pozitsiyasi tarixda radikal g‘oyalarning shakllanishiga zamin yaratgan.

XIX asrda Misrda boshlangan islomiy islohotchilik harakatlari, xususan Jamoliddin al-Afg‘oniy va uning shogirdi Muhammad Abduh faoliyati orqali diniy fikrda modernizm unsurlari paydo bo‘ladi. Ular islomni zamonaviy muammolar bilan uyg‘unlashtirishga uringan bo‘lsalar-da, ayrim shogirdlar va keyingi avlod salafiylari ushbu yondashuvni noto‘g‘ri talqin qilgan holda, Ibn Taymiya g‘oyalari qaytishni mutlaq haqiqat deb qabul qilgan.

Keyinchalik bu tendensiyalar XX asr boshida Hasan al-Banno asos solgan “Ithvon al-muslimun” (Musulmon birodarlar) harakatida yanada siyosiy lashib bordi. Ushbu harakat ijtimoiy adolat va musulmonlar birligi g‘oyalari bilan chiqsada, ayrim guruhlar uning doirasida ekstremistik yondashuvlar, jumladan siyosiy

islom, zo'ravonlik orqali hokimiyatga erishish kabi mafkuralarni ilgari surdi. Ayniqsa Sayyid Qutbning ta'limoti ushbu oqimning radikallashtiruviga asos bo'ldi.

Soxta salafiylar diniy qarorlarni (fatvolarni) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlardan ajratib, ularni faqat hijriy sananing dastlabki uch asrida yashagan musulmonlarning amaliyoti asosida baholashni targ'ib qiladilar. Bu yondashuv zamonaviy islom huquqshunosligining asosiy tamoyillaridan biri — ijtihod, ya'ni kontekstual yondashuv va yangi sharoitlarga mos yechimlar ishlab chiqish imkonini inkor etadi.

Mazkur oqim g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishida 1919-yilda Toshkentga kelgan mazhabsizlik targ'ibotchisi bo'lgan **Shomiy domla** (*Sayid ibn Muhammad*) asosiy rol o'ynagan. U o'z qarashlarida hanafiylik mazhabi va tasavvufni, urf-odatlar, muqaddas joylarni ziyorat qilish, dafn marosimlari, ulamolarni hurmat qilishni qattiq tanqid ostiga olgan.

O'tgan asrning 70-80 yillarda Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida salafiylar g'oyalariga aldangan ilk guruhlar paydo bo'la boshlagan. Ularga **Rahmatullo alloma, Abduvali Mirzaev va Obid Nazarov** kabi shaxslar boshchilik qilib, aholi orasida oqim g'oyalarini targ'ib qilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda oqim tarafdorlarining faollashuvi 2009-2010 yillarga to'g'ri keldi. Bu davrda respublika hududida bir qator "jamoat"lar tashkil qilingan. **2010 yildan keyin "jamoat" a'zolari o'z faoliyatini ma'lum muddat to'xtatishgan va keyinchalik yashirincha davom ettirishgan.**

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tilidagi kontentida soxta salafiylar g'oyalari asosan "Abdulloh Zufar", "Sodiq Samarqandiy", "Abu Saloh", "Ahliddin Navqatiy", "Yusuf Davron", "Tohir domla", "Obid qori", "Dilmurod Abu Muhammad", "Rinat Abu Muhammad", "Rashod qori" kabi profillar bilan tanilgan shaxslar tomonidan video va audio roliklar, elektron risola va kitob shakllarida tarqatilmoqda.

Avvalda soxta salafiylar **Qur'on va sunnatda kelgan qoidalarning zohiriga ko'r-ko'rona amal qilish, boshqa manbalarni tan olmaslik, avliyolar, shayxlar, mazhabboshilarga hurmat ko'rsatish, qabrlarni ziyorat qilish,**

musulmonlarni kofirga chiqarish va fiqhiy mazhablarni inkor qilishni ilgari surgan.

Bugungi kunga kelib media vositasida an'anaviy aqidaviy va fiqhiy asoslarga kata zarar yetkazuvchi quyidagi da'volarni qilmoqda:

1. Aqidaviy asosga ko'ra noto'g'ri da'volari:

– **Qur'onni yuzaki, so'zma-so'z (zohiriy) tarzda tafsir qiladi** – matnning chuqur ma'nosi, konteksti, tarixiy tafsir maktablari inobatga olinmaydi.

– **Alloh taoloni "osmon"da deb e'tiqod qiladi** – bu Alloh taologa insoniy xususiyatlar beruvchi qarash bo'lib, ahli sunna aqidasi zid hisoblanadi.

– **Rasmiy imomlar va ulamolarni "kufrga xizmat qiluvchi" deb ayblaydi** – bu orqali musulmon jamiyatlar rahbarlari va ulamolar obro'siga putur yetkaziladi.

– **"Mutashobih" oyatlarni (ya'ni mazmuni hammaga ochiq bo'lmagan, chuqur ma'noli oyatlarni) o'z bilganicha tafsir qiladi** – bu esa noto'g'ri e'tiqodiy xulosalarga olib keladi.

– **Alloh taoloni bandalarga o'xshash sifatlar bilan ta'riflaydi** – bu esa tashbih (Allohni maxluqotga o'xshatish) aqidasi olib keladi, bu esa ahli sunna val jamoa e'tiqodiga mutlaqo ziddir.

2. Fiqhga oid yondashuvlari:

– **Ijmo', qiyos, urf kabi shariat manbalarini inkor etadi** – bu fiqhiy manbalarni rad etish orqali shar'iy muammolarning zamonaviy yechimlarini inkor qiladi.

– **Vasila va vafot etganlarga Qur'on tilovati qilishni bid'at deb biladi** – bu esa musulmonlar o'rtasida an'anaviy qarashlarning yo'qolishiga olib keladi.

– **Fiqhiy mazhablarni inkor qiladi** – Imom Abu Hanifa, Shofe'iy, Molikiy va Hanbaliy kabi fiqh olimlarining yondashuvlarini rad etib, o'zlarining mustaqil va literal yondashuvini ilgari suradi.

– **Tasavvuf ta'limotini butunlay rad etadi** – islom tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy yetuklik maktablari bo'lgan tasavvufni "bid'at" deb hisoblaydi.

– Urf-odat va milliy qadriyatlarni “bid’at” deb hisoblaydi – mahalliy an’analar, urflar, to‘ylar, marosimlar kabi qadriyatlarni rad etish orqali milliy birlik va diniy bag‘rikenglikka putur yetkazadi.

Soxta salafiy vakillarining ijtimoiy tarmoqlar orqali **“Badandan qon chiqsa tahorat sinmaydi”, “Har bir bid’at zalolatdir”, “Mazhablarga tanlov asosida amal qilish mumkin”, “Paypoqqa mas’h tortish mumkin”, “Jamoat bo‘lib zikr va Qur’on tilovati dinda yo‘q”** kabi bergan fatvolari ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Tahlillarga ko‘ra, soxta salafiylarning internet va ijtimoiy tarmoqlardagi g‘oyaviy targ‘ibot usulini quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgani kuzatilgan:

– *fiqhiy va aqidaviy savollarga salafiylik qarashlari asosida fatvolar keltirish (kontentning 35,9%);*

– *Qur’oni karim tafsiri va boshqa diniy manbalardagi masalalarga sharhlar berib borish (kontentning 39,1%);*

– *fiqhiy va aqidaviyga oid bo‘lgan davomli darslar hamda salafiylik namoyandalariga tegishli kitoblarni bayon qilish (kontentning 12,5%);*


– *ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga nisbatan munosabat bildirish (kontentning 12,5%).*

Soxta salafiylik qarashlarini ilgari surayotgan da’vatchilar tarafidan Internet tarmog‘ining boshqa platformalarida ham g‘oyaviy qarashlarini shakllantirishga bo‘lgan intilish kuzatilmoqda.

Masalan, **“Google Play Market”** tizimidagi **“Islomiy Kitoblar Dasturi”** nomi ostida S.Samarqandiy va Yu.Davronning qarashlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi **“Ixlos.org”, “Kitob”, “Три основы (sharx Fauzan)”, “Uch asos”, “Islomnuri”, “Aqida bo‘yicha 200 ta savol”, “Namoz vaqti” va “Три основы”** kabi ilovalar ishlab chiqilgan.

Mazkur ilovalarga **“Play Market”** tizimi tomonidan **“+3”** (ya’ni barcha yoshdagilar ko‘rishi mumkin, unda zo‘ravonlik va haqoratlovchi elementlar mavjud emasligini bildiruvchi) belgisi taqdim qilingan.

Ilovalarning ekran tasvirlari:

		
<i>Uch asos</i>	<i>Kitob</i>	<i>IXLOS.ORG</i>
		
<i>Namoz vaqti</i>	<i>Три основы (шаарх Файзан)</i>	<i>Aqida bo'yicha 200 ta savol</i>


Mazkur ilovalarga joylangan maqolalar bir yoqlama talqinga ega ekani kuzatilmoqda. Masalan, "Ixlos.org" ilovasida "Jihad" sahifasi bo'lib, unda **"Jihad kimga vojib?"**, **"Jihadning ta'rifi va fazilati"** **"Jihadning xukmi"** va boshqa shu kabi maqolalar joylashtirilgan.

Maqolada **"jihad"** so'ziga bir yoqlama ta'rif berilgan. Shu bilan birga, Qur'on oyatlari va hadislardan foydalanishda oyatlarning ma'nolari tarjimasini o'zini berish bilan cheklangan. Berilgan oyat va hadislarining sharhlari keltirib o'tilmagan.

"Soundcloud" musiqiy platformasida (*audio formatdagi ovozli xabarni hech qanday to'siqsiz saqlash, eshitish, ko'chirish, tarqatish va boshqa imkoniyati mavjud tarmoq*) S.Samarqandiy va Y.Davron o'zining g'oyaviy izdoshlarini shakllantirishga urinmoqda.

Masalan, S.Samarqandiy tarafidan usulul fiqh ilmiga tegishli bo'lgan **"Kitobus solat"** (*muallifi Muhammad Inb Abdulvahhob*), **"Al-vobil as-soyyib"** (*muallifi Ibn Qayyim Al-Javziya*) (*ushbu kitoblar dinshunoslik ekspertizasi tomonidan o'tkazilmagan va O'zbekistonda foydalanish taqiqlangan*) va <https://scientific-ijl.com/>

“Varaqot” (*muallifi Imom Juvayni*) sharhlariga tegishli bo‘lgan davomli darsliklar joylab kelinmoqda.

		
<i>Varaqot sharhi</i>	<i>Kitobus solat</i>	<i>Al-vobil as-soyyib</i>

Y.Davron tarafidan esa, aqidaviy ixtiloflarni yoritishga qaratilgan **“Imom Buxoriy bilan Ash’ariy va Moturidiylar aqidasi solishtirish”** kabi mavzular keng ommalashtirilmoqda.



Bundan tashqari, **“Zello”** (*ovozli xabarlarini ulashuvchi onlayn ratsiya tizimi*) **ratsiya** dasturida S.Samarqandiy va Y.Davron materiallarni targ‘ib qilib kelayotgan **“Ixlos”** va **“Sodiq_Biz”** kabi kanallar mavjud.

Mo‘tadillik siyosati asosida soxta salafiylik qarashlarini ilgari surishga harakat qilayotgan “da’vatchi”larning asosiy targ‘iboti, faoliyati va bahs-munozaralari “YouTube” videoxosting platformasi orqali amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Soxta salafiylik g‘oyalari Internet tarmoqlardagi faoliyati boshqa platformalarda (**Play Market, Zello, Soundcloud**) ham keng ommalashib borayotgani ularning auditoriyasi ortishiga va soxta da’volar ta’siriga berilish holatlari ortishiga olib kelishi mumkin.

Oqibatda, hali oqni qoradan ajratishga ulgurmagan yoshlar internet orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi ta’limot, g‘oyalarga chalg‘ib, botil firqalarga qo‘shilib, soxta salafiylik tomonidan chiqarilayotgan fatvolari asosida shar’iy masalalarga doir bo‘lgan savollarni ularning auditoriyasiga murojaat qilishga sabab bo‘lishi mumkin.

Soxta salafiylik qarashlari turli platformalar orqali tarqalish tendensiyasi, ular tomonidan joylangan materiallarning tez ommalashishiga va foydalanuvchilarda islom asoslariga tegishli bo'lgan qarashlarda noto'g'ri fikrlar shakllanishiga turtki bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, soxta salafiylik oqimining g'oyaviy xavf va xatarlarini o'z vaqtida anglab olish, ularning jamiyatga, xususan yosh avlod ongiga salbiy ta'sirini tahlil asosida baholay bilish — zamonaviy ijtimoiy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlikning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki bu g'oyalar o'z mohiyatida din nomi bilan niqoblangan holda, tarixiy-islamiy an'analarni rad etadi, milliy qadriyatlarni “bid'at” deb hisoblaydi, diniy mazmundagi yondashuvlarni yuzaki, literal shaklda talqin qilib, diniy mutaassiblik va ekstremizmga yo'l ochadi.

Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi va informatsion makonning kengayib borayotgani sharoitida, yoshlar ushbu mafkuraviy oqimlar ta'siriga eng zaif qatlam sifatida ko'rilmogda. Yosh ong hali shakllanayotgan, izlanishga moyil, mustaqil tafakkur va mustahkam e'tiqodga ega bo'lish bosqichida bo'lganligi sababli, radikal va mutaassib ta'limotlarga berilib ketish xavfi yuqoridir. Soxta salafiylik esa aynan shu zaiflikdan foydalanib, oddiy va “sof islom” niqobi ostida jamoatchilikni asrlar davomida shakllangan islomiy-fiqhiy tafsir, mazhablararo muvozanat va tasavvufiy tarbiyani inkor qilishga undaydi.

Shu boisdan, bu tahdidga qarshi kurashda har bir darajadagi faoliyat — davlat siyosati, ta'lim tizimi, diniy-ma'rifiy ishlar, OAV hamda fuqarolik jamiyatining o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Xususan, sog'lom milliy-ma'naviy immunitetni shakllantirish, internet va raqamli platformalarda ishonchli diniy-ma'rifiy kontent yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda media savodxonlikni kuchaytirish, yoshlar bilan ishlovchi pedagog va imom-xatiblarning mafkuraviy tayyorgarligini oshirish kabilar asosiy yo'nalish sifatida ajralib turadi.

Shuningdek, muqobil — ya'ni asosli, chuqur, zamonaviy til va uslubda bayon etilgan an'anaviy islom ta'limotini ommalashtirish orqaligina bu tahdidlarga nisbatan jamoaviy immunitet hosil qilinishi mumkin. Bu yo'lda Imom Moturidiy,

Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband singari allomalarimizning boy ilmiy merosi, milliy ruhiyat va ijtimoiy barqarorlik omillari bilan uyg'unlashtirilgan holda targ'ib qilinmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda soxta salafiylikka qarshi kurash — bu nafaqat diniy, balki mafkuraviy, axloqiy, ijtimoiy va hatto milliy xavfsizlik masalasidir. Bu kurashni faqat repressiv yoki texnik vositalar bilan emas, balki ongli va ilmiy asoslangan, murosasiz emas — dalilli va ta'sirchan muloqot asosida olib borish zarur. Ayniqsa, bu jarayonda yosh avlodni asrab-avaylash, ularda tanqidiy fikrlash, diniy madaniyat va milliy iftixorni shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.